

of

Bir oy davomida Vikipediya o'zbek tilidagi maqolalar keskin ko'paygan:

maqolalar soni:
5 932 ta

faol foydalanuvchilar:
343 nafar

umumiy tahrirlar:
78 989 ta

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

41 (16494)
2022-yil, 25-iyun
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Yoshlar siyosati
2-bet

"Qizil" toifadagi
mahallaga ko'mak zarur

Moziy
4-bet

1906-yil 27-iyun... Jasorat,
qat'iyat va haqiqatparvarlik kuni

Tafsilot
7-bet

"Injener-
korrupsioner"



“ULOQ” “SALMON”DA KETDI

“Yoshlar oyligi” munosabati bilan “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida o'tkazilgan voleybol musobaqasi-ning final bosqichi nihoyasiga yetdi.

6-betga
qarang ↓

AMALIY YORDAM KO'LAMI ORTMOQDA

**Umiddjon
BAHROMOV,**
Yoshlar ishlari agentligining
Navoiy viloyati boshqarmasi
boshlig'i



Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar masalasi eng dolzarb bo'lib, bu borada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mahalladagi yoshlar yetakchilariga 13 turdagi tavsiya asosida hududidagi yigit-qizlarga yordam ko'rsatishi belgilangan. Shu kungacha qadar navoiylik yoshlardan 2699 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, mazkur murojaatlar yetakchilar tomonidan o'rganib chiqilib, 1 738 tasiga (64 foizi) tavsiya berilgan, 632 tasi rad etilgan.

Joriy yilda viloyatimizda "Yoshlar daftari"ga 10 ming 435 nafar yosh kiritilgan. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida ularning 75 foiziga amaliy yordam ko'rsatilgan. Jumladan:

2336

nafari doimiy ish o'rni-
ga ega bo'ldi;

1170

nafari jamoat
ishlariga jalb
etiladi;

1232

kasb-hunar-
ga o'qitishga
yo'naltirildi;

225

nafari ijara va mehnat
qurullari uchun sub-
sidiya oldi;

185

nafarining sifa-
rbarlik chaqiruv
rezervi xarajatlari
qoplab berildi;

848

nafarining kon-
trakt to'lovlari
qoplab
berildi;

33

nafar yoshning
ijtimoiy, iqtisodiy
va psixologik mu-
ammolari hal etildi;

1105

nafar yoshning
boshqa masalalar-
ga yechim topib
berildi.

"Yoshlarning bo'sh vaqti - yetakchining ish vaqti" tamoyili asosida mahallalarda 6 ta yo'nalishda har kuni tadbir va loyihalar, tanlov va musobaqalar tizimli ravishda o'tkazilmoqda. Jami 8682 ta tadbir orqali 318 ming 258 nafar yoshlarning bo'sh vaqti mazmunli tashkil etildi. Jumladan,



madaniyat va san'at bo'yicha 63 ming yosh ishtirokida 2351 ta, sport bo'yicha 84 ming yosh ishtirokida 2964 ta, IT bo'yicha 28 ming nafar yoshlar ishtirokida 769 ta, kitobxonlik bo'yicha 51 ming nafar yoshlar ishtirokida 1,8 mingta, vatanparvarlik bo'yicha 16,2 ming nafar yoshlar ishtirokida 758 ta tadbirlar tashkil etildi.

Bundan tashqari, "Besh tashabbus olimpiadasi"ga viloyat bo'yicha jami 172 ming 775 nafar yoshlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, olimpiadaning mahalla bosqichlarida jami 154 ming 46 nafar yoshlar ishtirok etdi. Natijada yurtimiz yoshlari jahon arenalarida yuqori natijalarni qo'lga kiritib, xalqimizning yuzini yorug' qilmoqda. Bunday yoshlar orasida Navoiy viloyatining ham mard va jasur o'g'il-qizlari borligi bizlarga ulkan faxr bag'ishlaydi.

Qolaversa, qiymati qariyb 3 milliard so'mlik zamonaviy ko'rinishdagi Yoshlar media markazi, Navoiy shahrining "Yoshlik" dam olish ko'li hududida 0,27 gektar yer maydonida qiymati 950 million so'mlik "Street workout" maydoni qurilib, yoshlarimizga topshirildi. Yoshlar media markazi joriy yilning yanvar oyidan Navoiy viloyati teleradiokompaniyasi hamkorligida "Kelajak yoshlari" teleloyihasi doirasida "Wi-fi Zone" ko'rsatuvini efirga uzatib kelmoqda. Shu kungacha qadar ko'rsatuvning 19 ta soni efirga uzatildi.

Biz yoshlarga qulay sharoitlar yaratish, ularning iste'dod-iqtidorini kashf etish va, albatta, rag'batlantirish uchun minglab loyiha hamda tadbirlarni o'tkazib kelmoqdamiz.



"QIZIL" TOIFADAGI MAHALLAGA KO'MAK ZARUR

Peshku tumanida 37 ta mahalla fuqarolar yig'ini mavjud bo'lib, yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholashning reyting ko'rsatkichlari (KPI) tizimi bo'yicha 23 tasi "yashil", 12 tasi "sariq" va 2 tasi "qizil" mahallalar toifasiga bo'lingan. "Qizil" toifaga kiruvchi hududlardan biri "Jongeldi" mahallasi tuman markazidan qariyb 200 kilometr uzoqlikda joylashgan bo'lib, 760 nafar aholi istiqomat qiladi. Ularning 173 nafari yoshlardir.


Mahalla tumanning olis cho'l hududida joylashgan, ishlab chiqarish sanoati ham yo'q. Hatto mahalla aholisining dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyati ham yo'q. Asosan, chorvachilik bilan kun ko'rish sababli mahalla "qizil" hudud toifasida ro'yxatga olingan.

Mahalla yoshlarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning sport sohasidagi qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun hududda yopiq sport majmuasiga ham ehtiyoj sezilmoqda. Tabiiyki, bunday mahallalarning "qizil" toifadan chiqib ketishi mushkul bo'ladi. Shu bois mazkur mahalla yoshlari bilan ishlashning yangicha tizimini yaratish, muammo va qiziqishlarini o'rganish, ular bilan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning ko'lamini kengaytirish hamda har bir yosh bilan individual ishlash

maqsadida "Yoshlar dasturi" tasdiqlandi.

Dastur asosida mahallani "qizil"dan "sariq"qa, keyinchalik "yashil" hududga olib chiqish uchun Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi hamda viloyat boshqarmasi birgalikda mahalla yoshlari bilan ochiq muloqotlar tashkil etmoqda. O'tkazilgan muloqotlarda o'nlab yoshlar tomonidan bildirilgan muammo va takliflar yuzasidan nazorat rejaları tuzilib, belgilangan muddatlarda yoshlar muammolari hal qilib berildi.

Hozirgi kunda eng muhim vazifalardan biri respublikamizning chekka va olis hududlardagi aholi farovonligi, yashash sharoitini yaxshilashdir. "Jongeldi" mahallasi aholisi, ayniqsa, yoshlarining bandligini ta'minlash, qolaversa, xalqimizning elektr energiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida mahalla





Kamoliddin HAMROYEV,

Yoshlar ishlari agentligi Peshku tumani bo'limi Mahallalarda yoshlar bilan ishlash, "Yoshlar daftari" va "Yoshlar balansi"ni muvofiqlashtirish sho'basini mudiri



Suhrobjon ISMATULLAYEV,

Nurobod tumanidagi "Chortut" mahallasi yoshlar yetakchisi



hududida shamol elektr stansiyalarini qurish rejalashtirilgan.

Mazkur loyiha Prezidentimiz tashabbusi va qarori asosida Saudiya Arabistonning "Internatsional Company for water and power projects" kompaniyasi tomonidan amalga oshirilmoqda. Hozir shamol elektr stansiyalarini qurish uchun yer ajratilib, shamol generatorlari o'rnatiladigan hududning topografiyasi, gidrologiya, geotexnika va boshqa yer qatlamini o'rganish ishlari yakunlandi. Loyihaning atrof-muhitga ta'sirini bilish uchun Peshku tumanida "Jamoat eshituvi" o'tkazildi. Unga ko'ra, ushbu loyihani amalga oshirish ekologiya va atrof-muhit uchun zararsiz deb topilgan. Shamol elektr stansiyasi ishga tushgandan so'ng mahalladagi barcha ishsiz aholi, ayniqsa, yoshlarning bandligi ta'minlanadi.



1 MILLIARD 200 MILLION SO'M YUTIB OLDIK

Faoliyatimni boshlaganimda birinchi bo'lib mahalladagi ishsiz yoshlardan "Bunyodkor yoshlar" guruhini tuzgandim. Ular menga ko'p ishlarda ko'maklashdi. Avvaliga mahalladagi xayriya hasharlari, keksalar holiday xabar olish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish kabi ishlarda ishtirok etgan bo'lsa, hozir bu jamoa bilan bir qancha ezgu ishlarni amalga oshirib kelmoqdamiz.

Yaqinda "Bunyodkor yoshlar" bilan birga mahallaning qarovga muhtaj qabristonini obodonlashtirishga kirishdik. Ishni hudud atrofiga daraxt ekishdan boshladik. Maydonni kengaytirdik. Qabristonimiz tepalikda joylashgani uchun u yerga suv yetib bormasdi. Guruh a'zolari bilan birgalikda 600 metr masofadan suv yo'li uchun chuqurlik qazib, quvur tortdik. Shu yo'l bilan maskanga suv olib chiqdik. Bu ishimizdan, ayniqsa, nuroniy-lar juda xursand bo'lib, duo qilishdi.



Qilayotgan ishlarimizni ko'rgan mahalla ahlining ishli va tadbirkor yoshlari ham mazkur guruhga qo'shilish istagini bildirib, yaqindan ko'maklashdi. Shu tarzda avvaliga faqat uyushmagan ishsiz yoshlardan tarkib topgan guruhimiz hozir tadbirkor va ko'ngilli yoshlar bilan anchagina kengaydi.

Mahallamiz yangi tashkil etilgani uchun mahalla binosi yo'q. Ayni paytda "Bunyodkor yoshlar" guruhi a'zolari bilan mahallamiz uchun alohida bino qurishga kirishganmiz. Bunda bizga mahalla faollari va tadbirkorlar yaqindan yordam bermoqda.


Mahallamizdagi yo'llar ham anchagina ta'mirtalab holga kelib qolgan, ayrim yo'llar yozda chang, qishda loydan arimas edi. Quvonarlisi, yaqinda mahallamizda ikkita asosiy yo'l qurilishi uchun "Openbudget" loyihasida 1 milliard 200 million so'mlik mablag'ni yutib oldik. Bunda ham "Bunyodkor yoshlar" guruhining xizmati katta bo'ldi. Hozir yo'l qurilishi boshlab yuborilgan, shag'al yotqizilmoqda. Keyingi haftada esa asfaltlash ishlari boshlanadi.

Albatta, bu ishlarni yo'lga qo'yish barobarida, asosiy vazifalarimni ham unutib qo'yganim yo'q. Mahalla yoshlarini xatlov qilib, ijtimoiy yordamga muhtojlarni "Yoshlar daftari"ga kiritib, ularga yordam berib kelyapmiz. Shu kunga qadar, 3 nafar yoshga harbiy xizmatga borishi uchun tavsiyanoma bilan shartnoma pullarini, 2 nafar yoshning kontrakt pullarini to'lab berdik. 3 nafar yoshga subsidiya asosida ish qurollari, 8 nafar ijtimoiy ko'makka muhtoj yoshlarga bir martalik moddiy yordam pullari ajratildi.

O'zim Samarqand davlat chet tillari institutini tamomlaganim bois mahalla yoshlari uchun bepul ingliz tili to'garagini tashkil qilganman. Yozgi ta'til davomida bo'sh vaqt topishim bilan mahallamiz yoshlariga ingliz tili saboqlarini berib kelyapman. Qolaversa, mahallamizda sportga qiziquvchi yoshlar uchun kurash bo'yicha mashg'ulotlar ham olib borilyapti. Haftasiga uch marotaba bo'lib o'tadigan mazkur to'garakka 30 nafardan ortiq yoshlar qamrab olingan.

Hali "Bunyodkor yoshlar" guruhi a'zolari bilan qiladigan ishlarimiz, tuzib olgan rejalari-miz talaygina. Bularni amalga oshirishda mahallamiz ahlining duosi kuch beradi.





Ziyoda RAHIMBOYEVA

Jasorat, qat'iyat, haqiqatparvarlik - ushbu uch xislat barcha kasb egalari uchun birdek zarur. Ammo shu zaruriyat yuzasidan ro'yxat tuzsaq-u eng birinchi o'ringa kimni qo'yamiz desak, hech ikkilanmay jurnalistlarni tanlaymiz!

"Agar shu maqolani gazetangda o'qisam...", "shu ko'rsatuvingni efirga bersang..." kabi tahdidlar ham yo'q emas. Eng asosiysi jurnalistning qat'iyatidir. Qat'iyatning yaroqlik muddati faqat tugal maqsadli insonlar uchun amal qilganidek, maqsadsiz jurnalist ham qorong'ida hassasini yo'qotib, qoqilib, turtinib borayotgan ko'rdek gap.

Ko'zi ojizlarga insonlar yordam qo'lini cho'zishar, ammo birgina do'a-qo'p'isa bilan o'zining mashaqqati va ijod mahsuli bo'lgan maqolani nashrdan, efir rejasidan olib qolgan, ijtimoiy tarmoqqa joylab, so'ng o'chirib yuborgan "jurnalist"ga xalq ham nafarat bilan qaraydi. Ozinga qat'iysizlik ortidan unga "sotilgan" degan tamg'a bosiladi. Qayerdadir o'qigan edim: "Shundayin 'nozik' kasbni tanladimgi, endi hayot-mamotimgi ham u bilan bog'lashing zarur".

Gazeta, televideniye, radio yoki internet saytidagi jurnalistik materialdan qanchalik haqiqat qidirilsa va topilsa, insonlarda shunchalik ishonch paydo bo'ladi. Haqiqatni yerga qaytarish va kaliti bilan ochish jurnalistlar zimmasida ekan, haqiqatsiz yoki kasbni kasal bermoga o'sxatish mumkin, nazarimda.

Shu o'rinda jasorat, qat'iyat, haqiqat, talabidagi o'zbek milliy jurnalistikasi paydo bo'lgan davr - XIX asrning boshlariga sayohat qilamiz.

Bugun rivojlanishdan ortda qolayotgan davlatlarda - muammo, rivojlangan va bunga intilayotgan davlatlarda esa yechim hisoblanuvchi bosma ommaviy axborot vositalarini hech ikkilanmay jurnalistikaning otasi deyish mumkin.

O'zbek jurnalistikasi tarixida ham shunday gazeta bor, u nafaqat ilk o'zbek tilidagi gazeta ekani, balki boshqa sabablari bilan ham bizga qadrlil. Aynan qaysi sabab deysimmi? Gazetamiz "Taraqqiy" nomida o'lub, bora-bora jismi ham ismiga muvofiq o'lub, millatimizni "keyin" qolmog'iga, jaholat va g'aflati oliyda o'lub, boshqa millatlardan kam darajada qolmog'iga aslo rozi emasdim. Binoan alayha, (shunga ko'ra) gazetamizning najotimizga, dunyo va oxiratda masud o'lmog'imizga yolg'iz ilm bodidur, demak birinchi vazifasidir" (1906-yil 27-iyun, gazetaning ilk soni, oxirgi sahifasi).

Ilk sonidanoq shunday maqola bilan chiqish qilgan ro'znomaning qanday sabab bi-

lan 19 ta soni chiqib, 20-soni nashrga tayyorlanayotganida to'xtatib qo'yilgani va yopib yuborilganini sezish qiyin emas. Ammo bu 19 ta son bilan xalqning yuragidan joy egallayotgan "Taraqqiy"ni bundan avval xalqning "ko'zini bog'lash" va qop-qop d'alarga ishonirish uchun "hukumat" tomonidan tashkil etilgan "O'rta Osiyoning umr guzorligi, Taraqqiy" nomli nashr bilan solishtiradigan bo'lsak, ushbu gazetani hech kim yopmagan, tazyiq o'kzmag'an.

1906-yil 27-iyun kuni "Taraqqiy"ning ilk soni nashr etildi. Oradan 3 oy ham vaqt o'tmasidan Chor ma'murlari, mahalliy ulamo va qozilar, mudarrislar "Taraqqiy" o'zlariga katta xavf tug'dirishi mumkinligini his etdilar. Bu gazeta-da chop etilayotgan maqolalarda ham namoyon bo'la boshladi.


Masalan, mulla Zulfiqor qalamiga mansub maqolani olsak: "Lekin ular bunday qilmaganliklari ustiga, gazeta qusurlarimizni yo'qotish istagida "bir-ikki yo'l tanbeh tariqi" ila yozilgan soz'ga tuslari buziladi. Kayflari qochub, bunlarga tahammul qilolmay (chidolmay) Allohdan qo'rqam va xalqdan uyalmay shahar hakimiga borib, "Taraqqiy" gazetasini yob-turing deb so'zlamishlar".

"Taraqqiy"dan keyin oradan 20 kun ham vaqt o'tmasidan ko'plab nashrlarda faol ishtirok etib, anchagina tajriba hosil qilgan **Munavvarqori muharrirligida "Xurshid" gazetasini chiqish boshladi.** Ushbu nashrning tezda ommalashishi va, afsuski, yopilishiga mahalliy xalq turmushidagi dolzarb, og'riqli muammolarni dadil ko'targani sabab bo'ldi.

Madomiki gazeta ko'rsatgan jasoratlarni esga olar ekanmiz, 3-sonidanoq e'lon qilingan "Mullo Gustoh buhoriy" imzosi ostida chop etilgan "Yig'irlar poraye bo'yni yo'g'onni, solurlar o'rtaga qiz-u juvonni" nomli tanqidiy materialning mazmuni bilan tanishsak zarur qilmaydi. Unga ko'ra, toshkentlik bir barcha eshon, johila ayollar va o'zini "Bahouddini soniy", ya'ni ikkinchi Bahouddin deb e'lon qilib, "kuf-usul" faoliyatini yo'lga qo'yib, bu xizmatlari evaziga ayollardan mo'maygina pul va tilla taqincholqar undirib kelgan.

Bunday maqolalarga juda ko'p misol keltirishimiz mumkin, aynan shu sababli ham gazeta o'zining qisqsa umri - 1 oy u 10 kun ichida mustahillat mehriini qozonib, fikrlar maydoniga aylanaadi. Turkistonning turli burchaklaridan kelayotgan xatlar ham mustahillatning o'z fikrlari, qiyanch kelayotgan muammolari bilan to'lib tashgan edi. Albatta, bundan "kimlangan-dil" g'ashi kelgan ko'rinadi, 10-soni chiqqach to'xtatildi.

Nabvbatdagi gazeta "Taraqqiy" va "Xurshid"ning yo'lini munosib davom ettirish uchun o'z faoliyatini boshlab yubordi. Taniqli ma'rifatparvar **Abdulla Avloniy "Shuhar" gazetasini** chiqarishga ruxsat olgach ro'znomaning ilk soni 1907-yilning 1-dekabrda dunyo yuzini ko'rdi. Adadi 1000 nusxa atrofida bo'lgan gazeta 10-soni chiqishi bilan to'xtatilgan bo'lsa ham, asl maqsad qanchalik ulug' ekanini unga shior tariqasida yozilgan gapdan ham anglab olish qiyin emas: "Talab qiling ilmi Chin mamlakatida bo'lsa ham". Payg'ambarimizning ushbu so'zlarini gazetaning birinchi sahifasida berishdan ko'zlangan maqsad nashr ilm-ma'rifat masalalariga qanchalik ahamiyat berishini bildirish edi.



Top right section containing a small advertisement or notice with the title "1906-yil 27-iyun" and "Taraqqiy" logo.

Large bottom section containing a detailed advertisement for "Taraqqiy" newspaper, including its history, subscription information, and contact details.



JURNALISTIKADA YOSHLARNING O'RNI QANDAY?

Dunyodagi eng qiyin kasblardan biri shifokorlikdir. Ammo jamiyatimizda yana bir kasb borki, uning mashaqqati shifokorlikdan ham og'irroq. Chunki oq xalat egalari bemori kimligini biladi, tekshiruvdan so'ng kasalga davoni ham topadi. Jurnalistning "bemori" aniq emas, chin davoga muhtoj insonning dardini topish uchun undan bilim, sinchkovlik, o'tkir zehn va sabr talab qilinadi.

shu bilan birga, xolis bo'la olishi lozim. Bu mashaqqatli kasb yo'lida minglab jurnalistlar qurbon bo'ldi, ko'z nuri ketdi, umri sarf bo'ldi. Muhimi, jurnalistika va jurnalistlar o'z bo'ynidagi vazifani sharaf bilan bajarib kelmoqda. Ezgu an'analar asrlar osha kelajak avlod jurnalistlariga meros bo'lib qolmoqda.

Xo'sh, yoshlar bu merosni qanchalik asrayapti? Bugungi jurnalistikada yosh jurnalistlarning o'rnini qanday?

U bir muhtojning mushkulini oson qilish uchun haftalab, ba'zan oylab harakat qilishi,

Gazetada e'lon qilingan "Turkiston maktablari", "Ta'mini istiqbol", "Holimizga doir" kabi ko'plab maqola va sharhlar gazeta faoliyatidagi eng yuksak davrda yozildi va chop etildi. Buning natijasi o'taroq Toshkent shahar 3-uchastka pristavi 1908-yilning 16-fevralida Abdulla Avloniydan "Shuhrat"ning butunlay to'xtatilgani haqida tilxat oldi.

Keyingi gazetalar faoliyati vaqt jihatidan rekord darajada qisqarib bordi. 1908-yilning 9-aprelida nashr etila boshlagan "Osiyo" gazetasi chin ma'noda "Shuhrat"ning yo'lini va maslagini beshta songacha davom ettirdi. Mualliflar tarkibi deyarli o'zgar olmay qoldi. Bosh muharir Ahmadjon Bektemirov gazeta-ning hech qursa 6-sonini ham chiqara olmadi.

Keyingi nashr "Tujor". 1907-yil 21-avgust sanasida birinchi soni chop etildi va biz yuqorida faoliyati bilan tanishgan gazetalardan uzoqroq "umr ko'rdi". Saidkarimboy Saidazimboyev muharrirligi va noshirigida chop etila boshlagan gazeta 36-soni chiquncha, asosan, savdogarlar tabaqasiga mo'ljallab maqolalar chop etdi va uning qisman uzoqroq yashaganiga ham sabab shu edi.

YOSHLAR TO'G'RI QALAMLI BO'LSIN



Xurshid DO'STIMUHAMMAD,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi:

- Bugungi kunda jurnalistika kirib bormagan soha mavjud emas. Mana shu so'zning o'zi uning mas'uliyatini, sharafiligini anglatadi. Bu sharafga loyiq bo'lish uchun hayotni bilish kerak. Hayot esa doimo o'zgarib turadi. Biz "Yangi O'zbekiston" degan so'zni ishlataymiz. Bu nima degani? Tinimsiz o'zgarishlar degani. Shu o'zgarishlarning orqasida emas, oldida yurish, islohotlarni odamlarga to'g'ri tushuntirib berish kerak. Bu jurnalistning asosiy vazifasi.

Agar jurnalist 100 yil shu kasbdagi faoliyat yuritgan ham, doimo harakatda, izlanishda bo'lishi, muntazam qalamini chaxlab borishi lozim. Ayni bayram arafasida bir gapni aytgim keldi: hozir yosh jurnalistlarimiz ancha ko'p. Men ularga havas qilaman. Bu maydonning o'ziga yarasha mas'uliyati bor, bu maydonning egalari yosh kadrlar.

Yosh jurnalistlar hayotni bilishga intilishi, ilmi, mahorati, adolati bo'lishi dardkor. Sahibqiron bobomiz aytgan edi: "To'g'ri qalamli odamlardan xabarchilarni tayinladim". Shu bois yoshlar to'g'ri qalamlilikka o'rganishi joiz. Zamonning eng katta muammolaridan biri matbuotning obro'sini oshirish. Matbuotning nufuzini oshirishda eng katta mas'uliyat yoshlar zimmasida. Shunday ekan, yoshlar matbuotning nufuzini, so'zning nufuzini o'ylasin, shu borada qayg'ursin.

YOSH JURNALISTLAR YUTUG'I




Olimjon O'SAROV,
O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi raisi:

- Bugun ommaviy axborot vositalarida faoliyat yuritayotgan yoshlarning ijobiy jihatlari xususida quyidagilarni aytish mumkin. Avvalo, so'nggi yillarda tahririyatlar yangi - yosh isde'dodli jurnalistlar bilan boyiyotganini alohida ta'kidlash kerak. Ularning ustun jihatidan biri bu yoshlarimizning bemalol xorijiy tillarda gaplasha olishi va yoza olish imkonining mavjudligidir. Xususan, xorijdan kelayotgan ekspertlar bilan ingliz, fransuz, ispan yoki boshqa xorijiy tillarda erkin muloqot qilayotgani bizni quvontiradi. Shu bilan birgalikda, ularning yana bir ijodiy ustunlik jihatida shundaki, yosh jurnalistlar zamonaviy axborot texnologiyalaridan tezkor va faol foydalana oladi. Misol uchun, ijtimoiy tarmoqlardagi turli messenjer va akkountlarga egaligi, axborotni uzatishda zamonaviy axborot texnologiyalari blogidan samarali foydalanayotganligini aytib o'tish mumkin.

Bu voqealarga ham deyarli 115 yil to'ldi. Oradan juda ko'p vaqt o'tdi, o'zgarishlar ro'y berdi. Ammo hammasi yana o'tmish sari yuz tutayotgandek. Bir vaqtlar hatto kuch ishlatib ham yopishning iloji bo'lmagan bosma nashrlarning ayrimlari hozirga kelib ba'zi sabablar bilan o'z-o'zidan yopilib ketmoqda. Tarixiy ildizlari bir necha asr oldinga borib taqaluvchi milliy jurnalistikaning otasi - matbuotimizning yo'qlik sari yuz tutish arafasida ekani juda achinarli!

Biroq har qanday muammoning yechimi topilayotgan, o'lim tashxisi qo'yilgan bemorlar ham dardiga shifo topayotgan bir vaqtda bu kabi masalalar hal bo'lishiga umid qilamiz. Yaqinlashib kelayotgan bayram arafasida ezguliklarni niyat qilib, barcha OAV xodimlarini tabriklaymiz!



Najmiddin ERMATOV,
"O'zbekiston tarixi" telekanali bosh muharriri:



JURNALISTIKA KAMIDA SIYOSAT

- Bir tarafda sobiq sho'ro davrida suyagi qotganlar, bir tarafda o'tgan davr pishitgan mafkura yalovbaradorlari, bir tarafda xalq-u bir tarafda davlat. Bu yerda ko'proq yosh tafovutidan ko'ra, haqiqatni idrok etish, uning yonida bo'la olish mashaqqatli kadrlarning tizimdagi o'rnini belgilaydi, menimcha. Yosh kadrlar hali uzoq yo'lni bosmagani uchun ham ayni vaqtda jurnalistika uchun foydaliroq. Hali ularning boshida "kaltak" sinmagan, qo'rquv, hayiqish ko'nikmasi ortirilmagan va bu narsa nimalamidir ayta olishiga imkon beradi.

Ammo bu omillar vaqtinchalik, baribir bilim, taj-

riba, zamon bilan hamnafaslik kun kelib o'z so'zini aytadi. Ayniqsa, yosh jurnalistlarning sohada o'z o'rnini topishi uchun ixtisoslashuv muhim. Turli yo'nalishlarga o'zini uraverish yoshga xos qiziqish. Biroq bu holat doimiy ko'nikmaga aylanib qolmasligi lozim. Ko'p yillar davomida jurnalistikaga ijodiy soha deya qarab kelindi. Uning tizimini aksar holda jodkor, shoir, yozuvchilar qo'lida bo'ldi. Bir ustozimiz aytganidek, jurnalistika ijod emas, kamida siyosat.

Gapning indallosini aytganda, ustozlardan oshirib biror nima deyish qiyin, haqiqatni izlagan odamning yelkasida kafanligi bo'lmo'gi lozim.



ENG NAMUNALI SARDORLAR ANIQLANDI

Joriy yil 20-24-iyun kunlari Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi "Yoshlar" oromgohida "Eng namunali maktab va mahalliy Sardorlar kengashi" tanlovining respublika bosqichi bo'lib o'tdi.

Tanlovda ishtirokchilar 3 ta shart asosida bellashdi. Birinchi shartda sardorlar o'zlarining bir yillik faoliyatini namoyish qildi. Ikkinchi bosqich "Bizning imkoniyatlarimiz" sharti bo'lib, unda ishtirokchilar yoshlar o'rtasidagi dolzarb muammolar haqida o'z fikrlarini bildirdi. Uchinchi – savol-javob shartida ishtirokchilar Yoshlar ittifoqi faoliyati hamda Sardorlar kengashi haqidagi savollarga javob berishdi. Tanlov yakunida g'olib va sovrindorlar aniqlandi. Unga ko'ra:

1-o'rin Rishton tumanidagi 20-maktab Sardorlar kengashi;

2-o'rin Buxoro shahridagi 2-maktab Sardorlar kengashi;

3-o'rin Guliston tumanidagi 15-maktab Sardorlar kengashiga nasib qildi.

Tadbir so'ngida barcha ishtirokchilar Yoshlar ittifoqi Markaziy kengashining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Mashhura NASRIDINOVA,

"Yoshlar ovozi" muxbiri

HAR BIR YOSHNING QALBIDA BAYRAM


"Yoshlar oyligi" doirasida tashkil etilayotgan "Besh tashabbus olimpiadasi"ning final bosqichi o'z atrofida millionlab yoshlarni birlashtirmoqda.

Bellashuvlarning galdagi manzili Samarqand shahri bo'ldi. U yerda O'zbekistonning turli hududlaridan kelgan yoshlar sportning "Street workout" hamda "Streetball" turlari bo'yicha respublika final bosqichida 16-21, 22-26, 27-30 yosh toifasida o'zaro bellashdi.

– Bu yerga biz kuch sinashish maqsadida keldik, – deydi sirdaryolik ishtirokchi **Humora Nurmatova**. – Tashrifimiz davomida nafaqat bellashdik, balki do'stlar orttiridik, Samarqand shahri bo'ylab sayohat qildik. Bu yilgi "Yoshlar oyligi" har bir yoshni qamrab oldi. Yaqinlashib kelayotgan bayramimizni bir olam hayajon bilan kutmoqdamiz.

Yakuniy natijalarga ko'ra, g'olib jamoalar diplom, medal va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Iqbol PARDAYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri



“ULOQ” “SALMON”DA KETDI



Yurtimizda voleybol o'yiniga qiziqish yildan yilga ortib bormoqda. Buni "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o'tkazilayotgan musobaqada ham ko'rdik.

16-21 hamda 22-26 yosh toifalari bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarning mahalla, sektor, tuman, viloyat bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tgan jamoalar finalda (o'g'il bolalar Qarshi shahrida, qiz bolalar Namangan shahrida) uchrashdi.

O'yinlar qiziqarli, keskin va murosasiz bahslarga boy bo'ldi. Barcha jamoalar o'z hududiga yorug' yuz bilan qaytish uchun harakat qildi.

Musobaqa yakunlariga ko'ra, qizlar o'rtasidagi bahslarda **Yangiqo'rg'on tumanining "Salmon" mahallasi jamoasi "uloqni" ilib ketdi.** Jamoa a'zolarining quvonchi cheksiz.

Qizlar o'rtasida 16-21 yosh toifasida Shofirkon tumanidagi "Arabxona" mahallasi jamoasi hamda Sherobod tumanidagi "Boyqishloq" mahallasi jamoalari 2- va 3-o'rinni egalladi. 22-26 yosh toifasida **1-o'ringa Baliqchi tumanidagi "Jasorat" mahallasi**

Shohsanam MIRKAMOLOVA,

16-21 yosh toifasida musobaqa g'olibi, Yangiqo'rg'on tumanidagi "Salmon" mahallasi jamoasi vakili:

– Voleybol musobaqasi mahallalar o'rtasida juda qiziq bo'lib o'tdi. Tuman, viloyat, respublika o'yinlari ancha mashaqqat talab qildi. Shunga qaramay, jamoamiz ahiligi, ustozimiz ko'rsatmalari tufayli respublika bosqichigacha yetib keldik. Jamoalar, raqiblar hammasi kuchli. Finalda Buxoro viloyati bilan uchrashdik. Bu jamoa ham oson taslim bo'lishni istamadi. Namangan shahri himoya qilish, mahallamizni himoya qilish uchun murabbiyimiz saboqlaridan chiqmagan holda harakat qildik.

jamoasi loyiq deb topildi. Urganch tumanidagi "Jayhun" mahallasi 2-, Zarbdor tumanidagi "Ravot" mahallasi 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Yigitlar o'rtasida 16-21 yosh toifasidagi bahslarda 1-o'rinni Qashqadaryo viloyati Kitob tumani "Denov", 2-o'rin Toshkent shahri Uchtepa tumani "Shirin", 3-o'rin Andijon viloyati Bo'ston tumani "Bog'ieram" jamoalari qo'lga kiritishdi.

22-26 yosh toifasida esa 1-o'rin Samarqand viloyati Paxtachi tumani "Amirobod", 2-o'rin Jizzax viloyati Zafarobod tumani "Nurafshon" hamda Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani "Do'rmon" jamoalariga nasib etdi.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,

"Yoshlar ovozi" muxbiri

ABDUMAJID VA'DASINI BAJARDI!

Maldiv davlatining Ukixas orolida 8-18 yoshlilar o'rtasida o'tkazilgan G'arbiy Osiyo chempionatida o'zbekistonlik shaxmatchilar 10 ta oltin, 8 ta kumush va 5 ta bronza medalini qo'lga kiritib, umumjamoasi hisobida 2-o'rinni egalladi.

Quvonarlisi, 170 nafarga yaqin shaxmatchilar qatnashgan turnirda shaxmatchi qizlarimiz Umida Omnova va Afruza Hamdamova barcha yo'nalishlarda (standart, blits va rapid) oltin medallarni qo'lga kiritib, G'arbiy Osiyo chempionatining mutlaq g'olibi bo'ldi.

Turnirda shaxmatchi yoshlarimizning ishtirokini ta'minlash uchun barcha xarajatlar Yoshlar ishlari agentligi tomonidan qoplab berildi.

24-iyun tonggi soat 03:00. Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida Yoshlar ishlari agentligi direktori, O'zbekiston Shaxmat federatsiyasi raisi Alisher Sa'dullayev boshchiligidagi sportchilarning ota-onalari va muxlislaridan iborat jamoa g'olib va ishtirokchilarni kutib olish uchun jamlandi. Tantanali marosimda Alisher Sa'dullayev g'oliblarimizni yana bir

bor g'alaba bilan tabrikladi va sportga qiziquvchi, jasur yoshlar safi yanada kengayishiga ishonch bildirdi.




**Abdumajid
BOTIRALIYEV,**
G'arbiy Osiyo chempionati
oltin medal sohibi:

– Yaqinda BAAda bo'lib o'tgan Xalqaro shaxmat turnirida qatnashib kelgach kelasi safar medallar shodasi bilan qaytaman, deb va'da bergan edim. Shaxmat bo'yicha nufuzli G'arbiy Osiyo chempionatida standart yo'nalishida oltin, blits va rapid yo'nalishlarida ham oltin medallarini qo'lga kiritib, medallar shodasi bilan qaytdim. Men va'damni bajardim!

Iqbol BAXT,

"Yoshlar ovozi" muxbiri



OILA INSTITUTINI RIVOJLANTIRISH KERAK

Prezidentimiz Konstitutsiyaning 29 yil-
ligiga bag'ishlangan nutqida bosh
qomusga kiritilishi lozim bo'lgan 9 ta
yo'nalishni belgilab bergan edi. Xususan, "Bosh
qomusimizda oila institutini rivojlantirish, ezgu
insoniy qadriyatlarimizni kelgusi avlodlarga
bezavol yetkazish, millatlararo totuvlikni yana-
da mustahkamlash bo'yicha konstitutsiyaviy
asoslarni belgilab qo'yishimiz zarur"ligi to'rtinchi
yo'nalish sifatida qayd etilgandi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda
nikohsiz farzandlar tug'ilishi soni o'sib bormoqda.
Ota-onalar nikohsiz tug'ilgan farzandlarini tan
olmasdan, bolalar uyiga topshirish, o'zga shax-
slarga pullash yoki go'dakni qarovsiz tashlab
ketish holatlariga yo'l qo'ymoqda. Bu esa bun-
day ota-onalarning mas'uliyati va javobgarligini
konstitutsiyaviy asosda belgilashni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining
XIV bob "Oila" deb nomlanadi va bob 4 moddani
o'z ichiga oladi. Mamlakatimizda ilg'or xorijiy dav-
latlar tajribalaridan kelib chiqqan holda
oila institutini rivojlantirish, oilaviy-
huquqiy munosabatlarning kons-
titutsiyaviy asoslarini takomil-
lashtirish maqsadida quyida-
gi normalarga o'zgartirish
va qo'shimchalar kiritilishini
maqsadga muvofiq deb
hisoblaymiz.

Xususan, Konstitut-
siyamizning 63-mod-
dasida: "Oila jamiyatning
asosiy bo'g'inidir hamda
jamiyat va davlat muho-
fazasida bo'lish huquqiga ega.
Nikoh tomonlarning ixtiyoriy ro-
ziligi va teng huquqliligiga asoslanadi"
deya belgilangan bo'lib, ushbu normada
faqat oilaning jamiyat va davlat muhofazasi-
da bo'lish huquqi ko'rsatilgan. Nikoh oila qu-
rinishning muhim jihati bo'lib, oilaning muhim
huquqiy belgisi sanaladi. Dunyoning qator
davlatlarida oila va nikohning davlat nazorati-
ga olinishi to'g'risida normalar kiritilgan.

Jumladan, Germaniya Konstitutsiyasining
6-moddasida nikoh va oila davlatning alohi-
da nazorati ekanligi, nikohsiz tug'ilgan bolalar
nikoh bilan tug'ilgan bolalar singari jis-
monan va aqlan rivojlanishi uchun
qonunchilikda belgilangan tar-
tibda zarur sharoitlar bilan
ta'minlanishi ko'rsatib o'til-
gan.

Shuningdek, bosh qo-
musimizning 64-mod-
dasi birinchi xatboshida
ota-onalar o'z farzand-
larini voyaga yetgun-
lariga qadar boqish va
tarbiyalashga majburligi
ko'rsatib o'tilgan. Mazkur nor-
mada "farzandlarning nikohda
tug'ilgan yoki tug'ilmaganidan
qat'i nazar" jumlasini kiritish muhim
hisoblanadi.

“
TAHLILLAR SHUNI
KO'RSATMOQDAKI, SO'NGGI
YILLARDA NIKOHSIZ
FARZANDLAR TUG'ILISHI
SONI O'SIB BORMOQDA.”

Davronbek O'RINOV,

O'zbekiston Respublikasi Jamaot xavfsizligi universi-
teti kafedrasida boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik
G'ayrat HIKMATULLAYEV,
kafedra dotsenti, podpolkovnik

“INJENER-KORRUPSIONER”

Uchko'prikliklar azaldan askiya-
ga o'ch, o'zlari ham uncha-mun-
cha voqea-tafsilotlarga to'n bichib,
yoqa kiygizib, ommaga yetkazish-
da usta bo'lib ketishgan. Mana
qarang, jinoyat ishlari bo'yicha
Uchko'prik tuman sudining bir gu-
ruh qalloblar ustidan chiqqan
hukmining siyohi qurimay turib vo-
qeani payrovga solishgani buning
isboti.

Abdulhay aka:

– Mansurjon!

Mansurjon:

– Labbay, aka.

– Tumandoshingiz Murodjon
injenerni juda nomi chiqqan dey-
yishadi.

– Shunday, u bordan yo'q,
yo'qdan bor qiladiganlardan.

– Lekin bu Murodjon deganlari
mashhur Aldarko'sani ham yarim
yo'lda emas, hali yo'lga chiqmay
aldab ketsa kerag-ov. Uddaburon-
ligini qarang-a, quduqni qog'ozda
qurib, pulini cho'ntakka urib ketibdi,
azamat.

– O'zi bu injenerni ancha-mun-
cha odam tanirdi, endi siz ham
bilib olibsiz. Zamona zayli bilan
mana biz tanigan odamlardan
ham qo'sh diplomil-qo'sh muta-
xassislar chiqib qoldi. "Injener -kor-
rupsioner" degan. Uni avval us-
talarning to'g'risi deb chaqirardik,
endi byudjet pulining o'g'risi deb
atarkanmiz-da.

Payrovga tushgan bu voqea
tafsiloti aslida bunday bo'lgandi.
Avval boshdan Vazirlar Mahka-



masining 2020-yil 24-fevraldagi
109-sonli qarori Nizom talablariga
zid ravishda "Uchko'prik tu-
mani "Oqsuv" mahalla fuqarolar
yig'inining Mamachol qish-
log'idagi tomorqa yer maydoni-
da vertikal sug'orish qudug'ini
burg'ulash loyihasi to'liq bajarildi.
Ya'ni "elektr nasos keltirildi, necha
o'n metr lab quvurlar o'rnatildi,
boshqarish stansiyasi ishga
tushirildi" tarzida dastlabki soxta
hujjatlar hozirlandi.

Bu ishga fermer Mirsobir Turdi-
yev, tumandan mas'ul xodim Faz-
liddin Jumanov va "Tavakkal"
mas'uliyati cheklangan jamiyati
rahbari Murodjon Hamroboev qo'l
urishdi. O'zaro kelishib, Hamrobo-
yevni "kattakon" qilib saylashdi
(ism-shariflar o'zgartirilgan).

So'ng shu hududdagi 30 ta
aholi tomorqa yerlariga suv chiqar-
ildi, hatto suv serobligidan qaq-

rab yotgan yerlar "ko'llab ketdi",
degan yo'sinda qalbaki dalolat-
nomalar tuzilib, shunga bop hi-
sob-fakturalar ham yasaldi. Epini
qilib, tuman hokimligi qoshidagi
Loyihalarni foydalanishga qabul
qilish kommissiyasiga taqdim etib,
tasdiqlatib ham olishdi.

Shu yo'sinda 118 million 800
ming so'm byudjet mablag'lari ras-
trata yo'li bilan talon-toroj qilindi.
Holat yuzasidan Jinoyat ishlari
bo'yicha Uchko'prik tuman sudi
tomonidan jinoyat ishi ko'rilib, sud
majlisida sudlanuvchining ko'rsat-
malari tinglandi, jinoyat ishi hujjat-
lari obdan o'rganildi. Pirovardida
uning jinoiy harakatlari Jinoyat ko-
deksining tegishli moddalari bilan
malakalanib, aybdorga nisbatan
tegishli jazo tayinlandi.

Abror OMONOV,

Jinoyat ishlari bo'yicha Uchko'prik
tuman sudining raisi

OXIRGI BOR 33 YIL AVVAL O'TKAZILGAN

Yurtimizda aholini ro'yxatga
olish yuzasidan keng qamrovli
ishlar bormoqda. Mamlakatimiz-
da aholini ro'yxatga olish jarayoni
bundan 33 yil avval o'tkazilgani
bu masalaning qanday ahamiyat
kasb etishini ko'rsatib beradi.

Aholini ro'yxatga olish nafaqat
aholi soni va demografiyasi, bal-
ki oilaviy ahvoli, yashash sharoiti,
bandligi, jinsi, yosh darajalari, fuqa-
rroligi, hududlarda aholi zichlik da-
rajasi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy
xususiyatlari haqida ishonchli
ma'lumat to'plash imkonini beradi.
Bu hududlarni rivojlantirish
va jamiyatning ijtimoiy himoya-
ga muhtoj qatlamlariga yordam
ko'rsatish, bo'sh ish o'rinlarini tash-
kil etishga ham yordam beradi.
Bundan tashqari, hududlarning
xaritalaridagi mavjud xatoliklarga
yechim topish bo'yicha aniq tak-
liflar berish imkonini vujudga keladi.

Vazirlar Mahkamasining
2020-yil 11-noyabrda qabul qilin-
gan "O'zbekiston Respublikasida
2023-yilda aholini ro'yxatga olishga
tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish
chora-tadbirlari to'g'risida"gi qara-
riga muvofiq, aholini ro'yxatga olish
2023-yilda o'tkazilishi belgilangan.

Bobur MEYLIYEV,

Yakkasaray tumani statistika
bo'lim boshlig'i

“SORISUV”

MAHALLASI 100 MILLION SO‘MNI QO‘LGA KIRITDI

Mantiqiy fikrlash, kuchli xotira, tasavvur, intuitsiya va baʼzan oddiylik. “Zakovat” intellektual o‘yinining asosiy va muhim jihatlari yuqoridagi so‘zlarda aks etgan. Biroz o‘ylashni, fikrlashni talab qiladigan o‘yin yurtimizda keng ommalashmoqda. Mazkur o‘yin ilm-fanga qiziqishni kuchaytiradi, chuqur ong ostini “qiyinlash”ni talab etadi, mantiqiy aurani rivojlantiradi.



Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
“Yoshlar ovozi” muxbiri
Foto: Ziyoda RAHIMBOYEVA

YAKUNIY NATIJALARGA KO‘RA, PAYARIQ TUMANINING “SORISUV” MAHALLASI “TRIUMF”GA EGA CHIQDI VA 100 MILLION SO‘MNI QO‘LGA KIRITDI.

Yoshlar o‘rtasida intellektual o‘yinlarni rivojlantirish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan o‘tkazilayotgan “Besh tashabbus olimpiadasi” tarkibiga “Zakovat” o‘yini ham kiritildi. Bahslar ilk bor besh bosqichda: mahalla, sektor, tuman(shahar), hududiy va final bosqichi shaklida tashkil etildi.

Murosasiz musobaqalarda intellektual salohiyatli, har jabhada ilmiy bo‘lgan yoshlar saralandi va final bosqichiga yetib kelishdi. Toshkent shahri mezbonlik qilgan final bahsiga 14 ta hududdan jami 42 ta jamoa (294 nafar yosh) ishtirok etdi. 200 million so‘mlik sovrin jamg‘armasi uchun o‘z hududining zakovatilari murosasiz kurashdi. Har bir savol uchun “ayovsiz jang” bordi.



Bahodir ANOROV,
“Zakovat” intellektual o‘yini 1-o‘rin sohibi,
“Sorissuv” mahallasi jamoasi sardori:

– Ko‘p yillardan buyon “Zakovat”ga qiziqaman. 2012-yildan buyon “Zakovat” klubining a‘zosi. 5 yil oldin mahallamizda “Zakovat” o‘yini o‘tkazish tashabbusi bilan chiqqan edim, o‘shandan buyon doimiy tarzda mahalla yoshlari o‘rtasida zakovat bahslarini o‘tkazib kelamiz. Bugungi o‘yinga mahalladagi shogirdlarim bilan birga qatnashdik va mahalla, sektor, tuman va viloyat bosqichlarida g‘olib bo‘lib, shu yergacha yetib keldik. Bugun bu tajribalar o‘z samarasini ko‘rsatdi. Mazkur o‘yinda ham g‘olib topilib, mukofot puliga ega chiqdik. Biz faqat ekran orqali ovozlarni eshitgan “Zakovat” intellektual klubi NNT prezidenti Abdurasul Abdullayevning o‘zi savollarni o‘qib eshittirdi. Bu jarayon har bir “Zakovat”ga qiziqqan yoshning eng yoqimli orzusi.



Qolgan o‘rinlarga ham munosiblar ega chiqdi. 2-o‘rinni Oltiariq tumanidagi “Usmonobod” mahallasi jamoasi qo‘lga kiritdi. 3-o‘rin esa Yozyovon tumanining “Yuqori Soybo‘yi” mahallasi jamoasiga nasib etdi. Ochkolar tengligi sababli pul mukofoti teng taqsimlanadigan bo‘ldi.

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O‘zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O‘zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Sardor SA‘DULLAYEV

Musahihlar:
Rashid XO‘JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100023, Toshkent, Matbuotchilar ko‘chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 238-79-95.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxanasida, A-3 formatda chop etiladi. Hajmi – 2 bosma taboq. Korxonani manzili: Buyuk Turan ko‘chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-855, Adali – 10584. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6